

BUGUNGI KUN TILSHUNOSLIGINING DOLZARB MASALALARI

Supervisor: Zarmed Universiteti xorijiy filologita kafedrasi o'qtuvchisi

Xudoyqulov Otabek Bohodir o'g'li

Student: Zarmed Universiteti

filologiya va tillarni o'qitish ingliz tili yo'nalishi talabasi

Komiljonova Shaxzoda Sunnatovna

Email: komiljonova2006sh@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu tezisdagi bugungi kun tilshunosligining dolzarb masalalaridan biri bo'lgan ko'p tillik hodisasi hamda ingliz tilini o'rganish jarayonida yuzaga keladigan lingvistik muammolar tahlil qilinadi. Til inferensiyasi, code-switching va kognitiv yuklama kabi psixolingvistik jarayonlarning ko'p tilli shaxs nutqiga ta'siri ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: ko'p tillik, til inferensiyasi, code-switching, ingliz tili, psixolingvistika.

Abstract: This thesis examines multilingualism as one of the actual issues of modern linguistics and analyzes linguistic challenges arising in the process of learning English. The study focuses on language interference, code-switching, and cognitive load as psycholinguistic phenomena influencing multilingual speakers.

Key words: multilingualism, language interference, code-switching, English language learning, psycholinguistics.

Аннотация: В данной работе рассматриваются лингвистические трудности, возникающие при изучении английского языка, а также влияние языковой интерференции, код-переключение на речь многоязычной личности и когнитивную нагрузку.

Ключевые слова: многоязычное, языковая интерференция, код переключения, английский язык, психолингвистика.

Hozirgi globalashuv davrida tilshunoslikda eng dolzarb masalalardan biri bo'lgan ko'p tillik hodisasi.

Ushbu zamonaviy jamiyatda abituriyentlar, studentlar va maktab o'quvchilari bir vaqtning o'zida ikki va undan ortiq tillarni o'rganishmoqda hamda ingliz tili xalqaro muloqot tili sifatida muhim o'rin tutyapti.

Shuningdek, ko'p tilda muloqot qiluvchi shaxs, yangi tilni o'rganayotganda aynan grammatika yodlash yoki lug'at yodlashdan iborat emas, bunda tafakkurning o'zgarish jarayoni va madaniyatlarning to'qnashuvini ham ko'rishimiz mumkin. Ikki va undan ortiq tilni bilish ingliz tilini o'rganishni osonlashtiradimi yoki murakkablashtiradimi? - degan savol paydo bo'lishi mumkin va bu zamonaviy tilshunoslik uchun dolzarbdir. Masalan: J. Cenoz

,D.Gorter va S.May o‘zlarining “Language Awareness a Multilingualism” asarida ko‘p tilda gaplashuvchi shaxslarning lingvistik tafakkuri tezroq rivojlanishini takidlaydilar.

“Linguistics and Second Language Acquisition” kitobining muallifi Vivan Cookning takidlashicha: Boshqa tillar yangi tilni o‘rganishni tezlashturadi, ya’ni oldin o‘rganilgan tillar yangi tilni o‘zlashtirishda ijobiy ta’sir ko‘rsatadi va transfer hodisasi hosil bo‘ladi. (Cook, 2008, 156-bet)

Shu bilan birga Gisela Granene, Michael H. Long, Yucel Yilmaz kabi olimlarning aytishlaricha, ko‘p tilli o‘quvchilarda tillar o‘zaro ta’sirlashadi va ba’zan nutqda aralashishning kuzatilishi qayt etiladi. (Multilingualism and Second Language Acquisition, 2013, 20-bet). Ko‘p tilli shaxsning nutqida tillar bir- biriga ulangan sistema sifatida faoliyat olib boradi. V. Cookning fikricha oldin Shuning uchun ingliz tilini o‘rganishda tillarning bir-biriga o‘zaro tasiri hodisasi hosil bo‘ladi.

Psixolingvistik taqiqotlar code-switching (inson ongida tillarning aralashish) jarayonini kommunikativ strategiya sifatida baholaydi. Ammo, o‘quvchida bir vaqtning o‘zida bir nechta tilning qayta ishlashi koginitiv yuklamani oshiradi va aqliy charchoqning yuzaga kelishini ko‘rishimiz mumkin.

Demak, tadqiqotlar natijasi shuni ko‘rsatadiki, ko‘p tillik hozirgi globallashtayotgan zamonda tilshunoslikning eng dolzarb va muhim masalalaridan biridir. Aynan zamonaviy talim tizimida multilingual yondashuvni rivojlantirish va tillarni o‘rganish jarayonida yuzaga keladigan hodisalar tabiiy lingvistik jarayon sifatida baholanishi lozim. Agar zamonaviy talim sistemasida multilingual yondashuv rivojlantirilsa til o‘rganish samaradorligi ham oshadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

1. Cook, V. Second Language Learning and Language Teaching. 2008.
2. Cenoz, J., Gorder, D., May, S. Language Awareness and Multilingualism. Springer, 2017.
3. Grosjean, F. Studying Bilinguals. Oxford University Press, 2010.
4. Baker, C. Foundations of bilingual Education and Bilingualism. Multilingualism Matters, 2011.
5. Crystal, D. The Cambridge Encyclopediya of Language. Cambridge University Press, 2010.